

ARAB TILIDA MOSLASHMAGAN ANIQLOVCHI XUSUSIYATLARI

Yoqutxon Anvarova

Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti,
Filologiya va tillarni o'qitish (arab tili) ta'lim yo'nalishi 2-bosqich talabasi
@anvarovayoqutxon523gmail.com
+998998645545<https://doi.org/10.5281/zenodo.18268348>

Annotatsiya. Mazkur maqolada arab tilida izofa (إضافة) munosabatining sintaktik va semantik jihatlari tahlil qilinadi. Izofa konstruksiyasi ikki yoki undan ortiq ismni bir-biriga bog'laydi va ularning ma'nosini aniqlik bilan belgilaydi. Maqolada izofaning turlari, uning gap tuzilishidagi roli va boshqa grammatik elementlar bilan bog'lanishi misollar orqali yoritiladi. Shuningdek, izofa konstruksiyasining qo'llanilishi va grammatika jihatidan cheklovlari batafsil ko'rib chiqiladi. Tadqiqot arab tilini o'rganuvchilar va tilshunoslar uchun nazariy va amaliy ahamiyatga ega.

Kalit so'zlar: moslashmagan aniqllovchi, izofa, arab tili grammatikasi, sintaktik vazifa, moslashuv, til tarkibi.

Аннотация. В данной статье анализируются синтаксические и семантические аспекты конструкции «идафа» (إضافة) в арабском языке. Конструкция идафа связывает два или более существительных и точно определяет их смысл. В статье рассматриваются виды идафы, её роль в структуре предложения и взаимодействие с другими грамматическими элементами на основе примеров. Также подробно изучается применение конструкции и её грамматические ограничения. Исследование имеет теоретическое и практическое значение для изучающих арабский язык и лингвистов.

Ключевые слова. несогласованное определение, изафет, грамматика арабского языка, синтаксическая функция, согласование, структура языка.

Annotation. This article examines the syntactic and semantic aspects of the "idāfa" (إضافة) construction in Arabic. The idāfa construction links two or more nouns and precisely defines their meaning. The article explores the types of idāfa, its role in sentence structure, and its interaction with other grammatical elements through examples. Additionally, the study discusses its usage and grammatical constraints in detail. This research is of theoretical and practical importance for learners of Arabic and linguists.

Keywords: non-inflected modifier, idāfa, Arabic grammar, syntactic function, agreement, language structure.

KIRISH. Arab tilida moslashgan aniqllovchi ko'pincha o'zbek tilidagi sifatlovchi aniqllovchilarga o'xshab ketadi, o'zbek tilidagi qaratqichli aniqllovchilarga ko'proq mos keladigan ibora moslashmagan aniqllovchi hisoblanadi. Moslashmagan aniqllovchi bilan aniqlanmishdan tashkil topgan birikma arab tilida إضافة – izofa deb nomlanadi. Uni tashkil etuvchi qismlar esa aniqlanmish مضاف – muzof, moslashmagan aniqllovchi مضاف إليه – muzof ilayhi deyiladi.

Izofada muzof ilayhi moslashgan aniqllovchi kabi aniqlanmishdan keyin keladi, lekin ular orasida to'rt jihat bo'yicha moslashish mavjud emas. Aksincha, izofada muzof bilan muzof ilayhining o'zaro munosabatga kirishuvining boshqacha xarakteri mavjud ya'ni muzof aniqlik

artiklisiz va tanvin qo'shimchasisiz keladi, muzof ilayhi esa har doim qaratqich kelishigida keladi¹. Masalan:

كِتَابُ طَالِبٍ

(kitābu ṭālibin) – Bir talabaning kitobi. Bu yerda طَالِبٍ – noaniq ism, ya'ni talaba noma'lum yoki umumiy talaba.

شُبَّانُكَ نَافِدَةٌ

(shubbāku nāfidhatin) – Bir derazaning oynasi. Bu yerda نَافِدَةٌ – noaniq ism (oyna noma'lum yoki umumiy).

بَابُ لَوْنٍ

(bābu lawnin) – Bir eshikning rangi. Bu yerda لَوْنٍ – noaniq ism (rang noma'lum yoki umumiy).

Muzof ال artiklini qabul qilmaydi. Uning aniq va noaniqligi muzof ilayhining holatiga bog'liq. Agar muzof ilayhi aniq holatda bo'lsa, muzof ham aniq holatda hisoblanadi. Masalan,

كِتَابُ الطَّالِبِ

kitābu aṭ-ṭālibi) – Talabaning kitobi. Bu yerda الطَّالِبِ – aniqlangan ism, ya'ni talaba ma'lum.

Gapdagi vazifasiga ko'ra izofa har uch kelishikda kelishi mumkin. Bunda faqat izofaning muzof qismi kelishikda turlanadi, muzof ilayhining kelishigi o'zgarmaydi².

Bosh kelishik – كِتَابُ الطَّالِبِ

Tushum kelishigi – كِتَابُ الطَّالِبِ

Qaratqich kelishigi – كِتَابُ الطَّالِبِ

Bu so'zlar ikkilik va ko'plik sonda bo'lganida, ular umumiy qoida asosida turlanadi.

Agar muzof ikkilikdagi va muzakkar to'g'ri ko'plikdagi otdan iborat bo'lsa, so'z oxiridagi ن harfi tushib qoladi.

1. Bosh kelishik: كِتَابُ الطَّالِبِ

2. Qaratqich kelishigi: كِتَابِي الطَّالِبِ

3. Tushum kelishigi: كِتَابِي الطَّالِبِ

Muannas holatida quyidagicha turlanadi:

1. Bosh kelishik: مَجَلَّتَا الطَّالِبِ

2. Tushum kelishigi: مَجَلَّتِي الطَّالِبِ

3. Qaratqich kelishigi: مَجَلَّتِي الطَّالِبِ

Muzakkar to'g'ri ko'plikda quyidagicha turlanadi:

1. Bosh kelishik: فَلَاحُو الْقَرْيَةِ

2. Tushum kelishigi: فَلَاحِي الْقَرْيَةِ

3. Qaratqich kelishigi: فَلَاحِي الْقَرْيَةِ

Agar muzof muannas to'g'ri ko'plik yoki siniq ko'plikdagi otdan iborat bo'lsa, kelishiklarda umumiy qoida bo'yicha turlanadi.

1. Bosh kelishik: تَلْمِيذَاتِ الْمَدْرَسَةِ

2. Tushum kelishigi: تَلْمِيذَاتِ الْمَدْرَسَةِ

3. Qaratqich kelishigi: تَلْمِيذَاتِ الْمَدْرَسَةِ

Arab tilida quyidagi so'zlar birlik sonda kelib, izofaning muzofi vazifasini bajarganda, uning kelishigi harakatlar bilan emas, harflar bilan ifodalanadi va buni Antuan Ad-dajjoh ushbu jadval orqali shunday tasvirlaydi:

¹N.Ibrohimov. Arab tili grammatikasi 1-qism. "O'zbekiston milliy ensiklopediyasi".:T- 1997.

²N.Ibrohimov. Arab tili grammatikasi 1-qism. "O'zbekiston milliy ensiklopediyasi".:T- 1997.

نُو	فَم	حَم	أَخ	أَب	
نُو	فُو	حَمُو	أَخُو	أَبُو	علامة الرَّفْع
ذَا	فَا	حَمَا	أَخَا	أَبَا	علامة النَّصْب
نِي	فِي	حَمِي	أَخِي	أَبِي	علامة الْجَزْ 3

O'zbek tilidagi qaratqichli moslashish ayrim jihatlari bo'yicha arab tilidagi tizimga o'xshab ketsa-da, muhim farqlarga ega. O'zbek tilida aniqllovchi va aniqlanmish o'rtasida arab tilidagidek jins, son, kelishik yoki hol shakllarida o'zaro moslashish kuzatilmaydi. Shuningdek, tilda aniq-noaniqlikni ko'rsatuvchi maxsus shakl mavjud bo'lmagani uchun aniqlik darajasi alohida belgilab qo'yilmaydi. Qaratqich-qaralmish munosabati ko'pincha sifatlovchi aniqllovchi bilan hosil bo'ladigan birikmalardan farqlash zarurati tufayli qo'llanadi. Qaratqich har doim qaratqich kelishigida keladi, qaralmish esa matndagi ma'nosiga qarab turli kelishiklarda bo'lishi mumkin hamda odatda egalik qo'shimchasi bilan shakllanadi⁴. Arab tilidagidek, bir qaralmishga bir nechta qaratqich bog'lanishi mumkin; bunda avval qaratqichlar, so'ng qaralmish keladi. Masalan: *Oilamning a'zosining ismi*

Ya'ni, ba'zan izofa uch va undan ortiq so'zdan iborat bo'lishi mumkin. Bunda o'rtadagi so'zlar o'zidan oldingi so'zga nisbatan muzof ilayhi, o'zidan keyingi so'z uchun esa muzof vazifasini bajaradi va shuning uchun o'zida ham muzoflik, ham muzof ilayhilik xususiyatlarini mujassamlashtirgan bo'ladi ya'ni **ال** artiklini qabul qilmagan va qaratqich kelishigida bo'ladi. Masalan:

قَلَمُ مُعَلِّمِ الْمَدْرَسَةِ

-maktab o'qituvchisining qalami.

Bunday iboralar izofa zanjiri deb ataladi. Agar muzofning moslashgan aniqllovchisi mavjud bo'lsa, u muzof ilayhidan keyin keladi:

قَلَمُ الطَّالِبِ الْجَدِيدِ – o'quvchining yangi qalami

Muzofning moslashgan aniqllovchisi o'zidan oldin keladigan aniqllovchi bo'lganida ham u muzof ilayhidan keyin keladi. Masalan,

قَلَمُ لَطَّالِبِ هَذَا – o'quvchining bu qalami...

Agar moslashgan aniqllovchi muzof ilayhiga tegishli bo'lsa, u umumiy qoida bo'yicha moslashadi. Masalan:

لِبَاسُ هَذَا الْمُعَلِّمِ – Bu ustozning kiyimi...

Agar izofada ham muzof, ham muzof ilayhi moslashgan aniqllovchiga ega bo'lsa, avval izofa, so'ng muzof ilayhining, undan so'ng esa muzofning moslashgan aniqllovchilari keladi. Masalan:

لِبَاسُ الْفَلَّاحِ الْمُجْتَهِدِ الْجَدِيدِ – tirishqoq studentning yangi daftari

XULOSA. Izofa arab tilida muhim ahamiyat kasb etadigan birlikdir. Izofa konstruksiyasi orqali gap yanada mukammal bo'ladi. Shunongdek, izofa zanjiri yordamida murakkab ma'nolarni shakllantirish va gap tuzilishini boyitish mumkin. Izofa birikmasi va qaratqichli aniqllovchi mavzulari ham arab, ham o'zbek tilshunosligi uchun muhim ilmiy masalalardan sanaladi. Bu mavzular nafaqat nazariy jihatdan, balki amaliy qo'llash jarayonida ham yuqori

³ أنطوان الدحداح. معجم قواعد العربية العالمية. – لبنان: مكتبة لبنان، 1944

darajada e'tibor talab qiladi. Chunki izofa konstruksiyasi arab tilining asosiy sintaktik birliklaridan biri bo'lib, qaratqichli aniqllovchi esa o'zbek tilida so'z birikmalarining mazmuniy izchilligini va grammatik bog'liqligini ta'minlovchi muhim unsur sifatida namoyon bo'ladi.

Adabiyotlar, References, Литературы:

1. O'zbek tilidan ma'ruzalar to'plami. – T.: LESSON PRESS, 2017.
2. N. Ibrohimov. Arab tili grammatikasi 1-qism. "O'zbekiston milliy ensiklopediyasi".:T-1997.
3. Баранов Х. Арабско-русский словарь. – М., 1985.
4. أنطوان الدحداح. معجم قواعد العربية العالمية. – لبنان: مكتبة لبنان، 1944.